

O'QUV DASTUR PASPORTI

*O'quv dastur uzluksiz tibbiy va farmasevtik ta'lim muvofiqlashtiruvchi kengashning
2024 yil 6 iyuldagi №MMO-9-2024 sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan.*

Amal qilish muddati 2026 yil gacha

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi
Kafedra/ bo'lim	Oilaviy tibbiyot kasb kasalliklari kursi bilan
O'quv dastur nomi	“OILAVIY SHIFOKORLIK AMALIYOTIDA ENG KO'P TARQALGAN KASALLIKLAR BO'YICHA TIBBIY XIZMAT KO'RSATISH “
O'qish turi	Mavzuviy malaka oshirish
O'quv dastur muallifi/ mualliflari	G'.S. Xalimbetov, D.A. Xasanova, R.A. Nurmuxamedova, M.S.Masharipova
Siklning umumiy soati	144 kredit

Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar



DSc., dotsent,
G'.S. Xalimbetov



PhD., dotsent
D.A. Xasanova.



t.f.d., dotsent
R.A. Nurmuxamedova



PhD, dotsent
M.S.Masharipova



Assistent
F.R. Kdirbaeva

Maqsad	Oilaviy shifokorlarning professional kompetensiyalarini takomillashtirish asosida, ularda biriktirilgan aholi guruxlari orasida profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish, ko'p uchraydigan asosiy patologik holatlar va ularga olib keluvchi havf omillarini erta aniqlash, skrining ishlarini o'tkazish mahoratini oshirish, xalqaro kasalliklar tasnifiga mos keladigan kasalliklarning nozologik shakllarini ambulator sharoitida erta tashhishlash va davolash, bemor hayotiga havf soluvchi holatlarda shoshilinch yordam ko'rsatish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini mukamallashtirish va yangilash.
Siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent	O'quv dastur birlamchi tibbiy sanitariya yordami muassasalari shifokorlari, ambulatoriya, sanatoriya-profilaktoriya va boshqa tibbiy Davlat va nodavlat muassasalari vrachlari, oilaviy shifokorlari va tor doira mutaxassislari uchun mo'ljallangan.
Sikl vazifalari	Zamonaviy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish; • aholi o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, profilaktik chora tadbirlarni amalga oshirish orqali ko'p tarqalgan kasalliklarni oldini olish, aholini sog'lom guruxlarga ajratish, jadval asosida emlashni tashkil qilish, sog'lom va bemorlarni dispanser kuzatuvini olib borishni tashkillashtirishga o'rgatish. • shifokorlarni isbotlangan tibbiyot asoslariga o'rgatish va uni birlamchi tibbiy sanitariya tizimi amaliyotga tadbiq qilish; • aholi orasida uchraydigan kasalliklarini MKB – 10 ga mos ravishda yangi tashhishlashga o'rgatish; • aholi kasalliklari epidimelogiyasi, patogenezi, skrining, profilaktikasi, erta tashhishlash va davolashni zamonaviy bilimlar darajasida o'rgatish; • zamonaviy laborator va instrumental tekshiruv natijalarini to'g'ri baxolashga o'rgatish;

	Tibbiyot xodimlarida hayotiy va ilmiy tassavvurni shakllantirishda milliy-ma'naviy qadriyatlarimizni insonparvarlik mohiyatini ko'rsatish asosida, tibbiyot xodimlarining qalbi va ongiga singdirish.
Sikl tarkibi	1 modul. BTTYoMda jamoa salomatligini saqlash, infeksiyon va dermatologik kasalliklar profilaktikasiga zamonaviy yondashuv. 2 modul. Oilaviy tibbiyotda ona va bola salomatligini saqlashda yangi direktiv yo'nalishlar. 3 modul. Asosiy yuqumli bo'lmagan kasalliklar profilaktikasi, tashxislash, davolash, aholining sog'lom turmush tarzini shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar. 4 modul. Oilaviy shifokor amaliyotida ichki kasalliklarni tashhislash va davolashda yangi profilaktik yondashuv. 5 modul. Xirurgiya, travmatologiya, shoshilinch holatlarda, LOR va oftalmologik kasalliklarda birlamchi sanitariya yordamini ko'rsatishdagi zamonaviy usullar.
O'qish bazalari 	48 Oilaviy poliklinika, Toshkent shahri, Shayxontoxur tumani, Abay ko'chasi 5 uy. Hamda sayyor sikllarda belgilangan o'qiv bazalarida. 



Simulyatsion asbob/uskunalar

